

## KORRUPSION HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

*Rixsитillayev Saidiskandar Doniyorxoji o'g'li  
Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik bazasining yaratilishi va sohaga oid muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar tahlil etiladi. Xususan, keyingi yillarda mamlakatimizda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi. Shuningdek, maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi so'nggi yillarda qabul qilingan normativ hujjatlar mazmuni haqida ham ma'lumotlar berilib, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari bo'yicha ayrim takliflar ham sanab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya tushunchasi, korruption huquqbazarlik, manfaatlar to'qnashuvi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, "halollik vaksinasi", huquqiy ong va madaniyat.

**Abstract:** This article analyzes the creation of a legal framework in the field of combating corruption in Uzbekistan and important organizational and legal reforms in this area. In particular, in recent years, our country has taken systematic measures aimed at raising the legal awareness and legal culture of the population, the formation of an intolerant attitude to corruption in society. The article also provides information on the content of normative documents adopted in recent years in the field of combating corruption, and lists some suggestions on current issues of combating corruption in our society.

**Key words:** concept of corruption, corruption offense, conflict of interest, AntiCorruption Agency, "honesty vaccine", legal consciousness and culture.

**Аннотация:** В данной статье анализируется создание правовой базы в сфере противодействия коррупции в Узбекистане и важные организационно-правовые реформы в этой сфере. В частности, в последние годы в нашей стране принимаются системные меры, направленные на повышение правосознания и правовой культуры населения, формирование в обществе нетерпимого отношения к коррупции. В статье также представлена информация о содержании антикоррупционных нормативных актов, принятых в последние годы, а также некоторые предложения по актуальным вопросам борьбы с коррупцией в нашем обществе.

**Ключевые слова:** понятие коррупции, коррупционное правонарушение, конфликт интересов, Антикоррупционное агентство, «вакцина честности», правосознание и культура.

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida jinoyatlar profilaktikasining ustuvorligi e’tirof etilganligiga asoslanib, «korruption huquqbazarliklarning profilaktikasi» aynan ushbu turdagи huquqbazarliklarga qarshi kurashda ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Ma’lumki, korruption huquqbazarliklar davlat boshqaruvi, jamiyat taraqqiyoti va inson manffatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa ekanligi hech kimga sir emas. Buni O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlaridan ham chuqr anglab olish qiyin emas: jinoyatchilik, jumladan uning uyushgan shakllari va korrupsiya bizning o‘z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soluvchi real manbadir .

Shuni unutmaslik kerakki, tamagirlik, to‘rachilik, poraxo‘rlik, kibr-havo, korrupsiya nihoyatda yuqumli va xavfli kasallikdir. O‘z vaqtida uning oldi olinmasa, bu maraz butun jamiyat tanasiga yoyilishi va uni halok qilishi mumkin. Bu illat, avvalo, shu kasalga mubtalo bo‘lgan odamning o‘zini yeb ishdan chiqaradi. Uning iymonini, oxiratini xonavayron qiladi. So‘ngra, boshqa insonlarni, asta-sekin butun jamiyatni yemirishga o‘tadi .

Darhaqiqat, hozirgi kunda korruption aloqalarga ega bo‘lgan uyushgan jinoiy tuzilmalar, ayniqsa uning xalqaro aloqalarga ega bo‘lgan hamda xalqaro miqyosda faoliyat ko‘rsatayotgan tuzilmalari O‘zbekistonning milliy xavfsizligiga tajovuz qiluvchi eng xavfli va jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalari bilan uzviy bo‘lgan nihoyatda xavfli va murakkab hodisalardir .

Keltirib o‘tilganidek, korruption huquqbazarliklarning mavjud ijtimoiy xavfi unga qarshi kurashni yanada dolzarblashtiradi. Buning uchun avvalo korruption huquqbazarlik tushunchasiga aniqlik kiritib o‘tish maqsadga muvofiq.

Korruption huquqbazarlik deganda, davlat organi vakolatini bajaruvchi yoki unga tenglashtirilgan shaxs o‘z xizmat lavozimidan yoki davlat organi maqomidan foydalanib moddiy manfaat va ustunlik olish uchun sodir etgan huquqqa xilof xattiharakat tushuniladi. (Masalan, berilgan davlat va munitsipial mulk huquqini xizmat manfaatidan tashqari, xususan davlat funksiyasini bajarish uchun berilgan xona, transport, aloqa vositasi, elektron hisoblash texnikasi, shuningdek xizmat ma’lumotlaridan foydalanish uchun berish bilan bog‘liq holda uchinchi shaxslardan noqonuniy mulkiy boylik va imtiyozlar olish (agarda bunday foydalanish amaldagi qonunlarda ko‘rsatilmagan bo‘lsa); davlat organi uchun o‘rnatalgan qaror qabul qilish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibini buzish (agar bu buzishlar qaror qabul qilishda bunday shaxslarga afzalliklar olib kelsa); o‘z xizmat maqomi yoki tegishli davlat organi maqomidan uchinchi shaxslar manfaatlari

yo‘lida foydalanish va h.k. Korruption huquqbazarliklar: jinoyatlar, fuqaroviylar huquqiy, ma’muriy, intizomiy huquqbazarliklarga bo‘linadi.

Korruption huquqbazarliklarga berilgan ta’rif hamda «Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonun talablaridan kelib chiqib, korruption huquqbazarliklar profilaktikasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Korruption huquqbazarliklar profilaktikasi – bu, qonun hujjatlariga muvofiq huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, korruption huquqbazarliklarni aniqlash, bartaraf etish, oldini olish, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish hamda bartaraf etish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar tomonidan korruption huquqbazarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasida qo‘llaniladigan ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Profilaktika xizmatlarining korruption huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirish faoliyati deganda, korruption huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlarining aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot olib borish, korruption huquqbazarliklarning oldini olish va bartaraf etish, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish hamda bartaraf etishga doir faoliyatini tushunishimiz mumkin.

Bu borada korruption huquqbazarliklar umumiy profilakti-kasining quyidagi chora-tadbirlari amalga oshiriladi:

- korruption huquqbazarliklarning tushunchasi, turlari, ijtimoiy xavfi, sodir etilish shakllari kabilar haqida ma’lumot berib, aholini korruption huquqbazarliklarga qarshi kurashga yo‘naltiruvchi huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish;
- tegishli davlat organlariga korruption huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnomalarni kiritish;
- qonun hujjatlarida o‘rnatalgan hollarda va tartibda normativ-huquqiy hujjatlar loyihibalarining huquqiy ekspertizasini o‘tkazish;
- korruption huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganishni tashkil qilish va amalga oshirish hamda o‘rganish natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish;
- korruption huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarning ilmiy tadqiqotini tashkillashtirish va amalga oshirish;
- korruption huquqbazarliklar profilaktikasida aholining faol ishtirok etishini rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– korruption huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish, umumlashtirish hamda o‘zaro zid bo‘lmagan qoidalar va tartibni milliy qonunchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etish.

Korrupsion huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi esa alohida va individual yondashishni talab etib, korruption huquqbazarliklarni sodir etishga moyil hamda ilgari shu turdagи huquqbazarliklarni sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va profilaktik ta’sir ko‘rsatib ularning axloqan tuzalishiga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi.

Korrupsion huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi doirasida quyidagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshriladi:

– profilaktik suhbat;

– g‘ayrihuquqiy xulq-atvorga yo‘l qo‘ymasligi to‘g‘risida rasmiy ogohlantirish (keyingi o‘rinlarda rasmiy ogohlantirish);

– korruption huquqbazarliklarning sabablari va shart-sharoitlari to‘g‘risida xabardor qilish;

– ijtimoiy xavfli holatda bo‘lgan shaxsning ijtimoiy reabili-ta-siyasi va ijtimoiy moslashuvi;

– profilaktik hisobga olish;

– majburiy davolanishga yuborish;

– ma’muriy nazorat;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlar.

Korrupsion huquqbazarliklarning viktimalogik profilaktikasi deganda, huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlarining aholi, alohida toifadagi fuqarolar va muayyan shaxsning korruption huquqbazarliklardan jabrlanuvchi bo‘lish xavfini kamaytirishga qaratilgan korruption huquqbazarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishga doir faoliyati tushuniladi.

Korrupsion huquqbazarliklarning viktimalogik profilaktikasi sohasida quyidagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshriladi:

– shaxsning demografik, jismoniy, ijtimoiy-psixologik va ijti-moiy mavqeiga oid xususiyatlarini hisobga olgan holda korruption huquqbazarliklardan jabrlanganlarga nisbatan profilaktik chora-tadbirlar o‘tkazish;

– potensial jabrlanuvchini aniqlash va himoya qilish bo‘yicha maxsus choralar qabul qilish ;

– korruption huquqbazarliklardan jabrlanish oqibatida jismoniy, ma’naviy va mulkiy ziyon yetkazilganlarga malakali psixologik, ruhiy, tibbiy, huquqiy va boshqa yordamlarni ko‘rsatish;

– potensial jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsiz-ligini ta’minlashga qaratilgan maxsus kompleks choralar ishlab chiqish va amalga oshirish, qonunda nazarda tutilgan o‘zini himoya qilish choralarini (usullari) to‘g‘risida xabardor qilish;

- korruption huquqbazarliklar nisbatan tez-tez sodir bo‘lib turadigan joylar (hududlar)ni, ularning sodir etilishi holatlarini (obyektiv, subyektiv) hisobga olgan holda muntazam nazorat qilib turish;
- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan korruption huquqbazarliklar to‘g‘risida axborot olish maqsadida huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari qoshida ishonch telefonlari tashkil qilish;
- sodir etilgan korruption huquqbazarliklar statistikasi, ularning sodir etilish joyi va vaqtি to‘g‘risida ommabop ma’lumotlar elektron bazasini tashkil qilish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashning ilg‘or usullari to‘g‘risida elektron adabiyotlar (publitsistik, yuridik, ilmiy-ommabop xususiyat-ga ega bo‘lgan)ni tarqatish.

Korrupsion huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda inson huquq va erkinliklarini cheklashga, qiyonoq yoki inson qadr-qimmatini kamsitilishiga, yozishmalar, telefon so‘zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa xabarlarni oshkor qilishga, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari erkin joy tanlash va ko‘chib yurish, uy-joy va shaxs daxlsizligini cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtida korrupsiya qarshi kurashda ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining aholi bilan hamkorligini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Negaki, korrupsiya qarshi kurashda ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining aholi bilan hamkorligi borasida o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjudki, ularni hal qilish nafaqat amaliy chora-tadbirlarni bajarish, balki bu borada ilmiy tadqiqotlarni olib borishni ham talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi // <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet108-12-2018>

2. “Korrupsiya qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun // <https://lex.uz/docs/3088008>

3. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4355387>

4. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4875784>

5. “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-iyuldaggi PF-6257-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5495529>

6. Mustafayev, U. U. (2021). TA’LIM BOZORI VA INTELLEKTUAL SOTSIAL “TOVAR” SIFATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 218-226.

7. Худайбердиева, Г. X., & Алланазаров, М. М. (2020). Ёшларни ғоявий тарбиялашнинг усуллари, шакллари ва воситалари. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 1)